

## **RAQAMLI ASRDA BIZNES JURNALISTIKASINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI**

**Ravshan RAYIMJONOV**

Filologiya fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

O'zbekiston jurnalistika va  
ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Toshkent, O'zbekiston

[ravshanr@mail.ru](mailto:ravshanr@mail.ru)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada biznes jurnalistikasining hozirgi sharoitdagi ahamiyati, uning iqtisodiy jarayonlar va siyosiy omillar bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Global geosiyosiy muhitda iqtisodiy axborotlarning xolisligini saqlash, axborot manbalarining ishonchliligi va jurnalistikaning mustaqilligi dolzarb muammolar sifatida ko'riladi. Tahliliy yondashuv va amaliy misollar asosida transmilliy korporatsiyalar, xalqaro sanksiyalar va bozor manipulyatsiyasi kabi holatlarda jurnalistikaning roli yoritiladi. Kontent tahlil va taqqoslash metodidan foydalanib, biznes jurnalistikasining axborot siyosati bilan kesishuvchi jihatlarini ochib berilgan hamda media mustaqilligini ta'minlash bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

**Tayanch so'zlar:** biznes jurnalistikasi, geosiyosiy bosim, axborot xolisligi, media manipulyatsiyasi, iqtisodiy tahlil, axborot siyosati.

## **СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ДЕЛОВОЙ ЖУРНАЛИСТИКИ В ЦИФРОВОМ ВЕКЕ**

**Равшан РАЙИМЖОНОВ**

Доктор философии по (PhD) филологическим наукам

Университет журналистики и массовых

коммуникаций Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

[ravshanr@mail.ru](mailto:ravshanr@mail.ru)

### **Аннотация**

В статье рассматривается значение деловой журналистики в условиях современных глобальных изменений, акцентируется внимание на взаимосвязи экономических процессов и политических факторов. Анализируются проблемы достоверности информации, независимости СМИ и влияние геополитических конфликтов на информационное пространство. С использованием метода контент-анализа и сравнительного подхода показана роль журналистов в освещении санкций, транснациональных корпораций и манипуляций на рынках. Автор предлагает теоретические и практические рекомендации по обеспечению независимости деловой журналистики в современных условиях.

**Ключевые слова:** деловая журналистика, геополитическое давление, объективность информации, медиа-манипуляции, экономический анализ, информационная политика.

So‘nggi yillarda jahon media makonida jurnalistikaning an‘anaviy yondashuvidan ixtisoslashgan tarmoqlarga o‘tish jarayoni kuchaymoqda. Endilikda media sohasi faqatgina axborot uzatish bilan cheklanmay, balki ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotning barcha jabhalarida chuqur tahliliy ishtirok etuvchi yo‘nalishlarga ajraldi. Jumladan, iqtisodiyot jurnalistikasi, huquqiy jurnalistika, ekologik jurnalistika, fuqarolik jurnalistikasi kabi yo‘nalishlar bilan bir qatorda, biznes jurnalistikasi ham zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ajralmas bo‘lagiga aylangan. Ushbu yo‘nalish iqtisodiy ma’lumotlarning nafaqat uzatilishini, balki ularning siyosiy kontekstda qanday talqin qilinishini ham o‘z ichiga oladi [1;12].

Bugungi kunda global iqtisodiy tizim murakkablashib, davlatlararo moliyaviy aloqalar, transmilliy kompaniyalar va geosiyosiy raqobatlar media orqali ham talqin qilinmoqda. Xalqaro biznes jurnalistikasi nafaqat fond bozorlari, inflyatsiya darajasi yoki investitsion faollikni yoritadi, balki siyosiy qarorlarning iqtisodiy oqibatlariga oid tahlillarni ham taqdim etadi. Aynan shu jihati bilan biznes jurnalistikasi zamonaviy media muhitining siyosiy-iqtisodiy indikatoriga aylangan.

Ammo bu jarayonda axborot manbalarining xolisligi, ommaviy axborot vositalarining siyosiy yoki korporativ manfaatlardan xoli bo‘lishi, jurnalistlarning mustaqil tahliliy yondashuvga ega bo‘lishi kabi muhim muammolar paydo bo‘ldi. Ayrim hollarda korporativ manfaatlar yoki hukumat bosimlari natijasida iqtisodiy axborot manipulyatsiyaga uchraydi. Misol tariqasida, “Tesla” aksiyalari haqidagi manbalar, “GameStop” hodisasi yoki Xitoy texnologik kompaniyalariga nisbatan joriy etilgan sanksiyalarni yoritishda ba’zi media resurslar muvozanatni yo‘qotgan holatlar kuzatilgan [3; 202].

Ushbu tadqiqotda tahliliy-kontent yondashuvi asosiy metod sifatida tanlandi. Bu yondashuv biznes jurnalistikasi orqali yoritilgan iqtisodiy va siyosiy voqealarning qanday ifodalanganini, qaysi axborot manbalariga tayanilganini va qanday tahliliy pozitsiyalar ilgari surilganini o‘rganishga imkon beradi. Ayniqsa, iqtisodiy axborotlar va siyosiy kontekstlar kesishmasida jurnalistikaning

mustaqilligi, xolisligi va manipulyatsiyaga qarshi pozitsiyasini aniqlash uchun bu metod samarali hisoblanadi [1;33].

Tahlil uchun “Bloomberg”, “The Economist”, “Reuters”, “Financial Times” va “The Wall Street Journal” kabi xalqaro nufuzli nashrlarning tanlanishi bejiz emas. Ushbu media resurslar global moliyaviy bozorlar, transmilliy kompaniyalar va geosiyosiy jarayonlarni doimiy kuzatib boradi va keng auditoriyaga ega. Manba tanlashda nashrlarning jahon miqyosidagi obro‘si, axborotning sifati, maqolalarning yangiligi va tahliliy chuqurligi mezon sifatida olinib, 2020–2024-yillar orasida e‘lon qilingan maqolalar tahlil qilindi.

Metodologik yondashuvda G‘arb va Sharq media muhitining o‘ziga xos jihatlari qiyosiy tahlil qilindi. AQSh va Yevropa OAVlarining ochiqlik, so‘z erkinligi va tahlil doirasi bilan Xitoy va Rossiyadagi axborot cheklovlari, davlat nazorati va propaganda tendensiyalari solishtirildi. Bu ikki model orqali biznes jurnalistikasining xolislik va mustaqillik mezonlari qanday shakllanishi, shuningdek, qanday bosimlar ostida faoliyat yuritishi o‘rganildi [2; 203].

Tahliliy kontent sifatida ayrim aniq iqtisodiy va siyosiy voqealar misol qilib olindi: “Tesla” kompaniyasiga oid “Bloomberg” va “Forbes” maqolalari, “GameStop” aksiyalarining 2021-yildagi sun‘iy ko‘tarilishi bilan bog‘liq “Reddit” voqeasi, AQSh–Xitoy o‘rtasidagi savdo urushi, Rossiyaga qarshi sanksiyalar va ular bilan bog‘liq energetika siyosatining OAVda yoritilishi. Bu holatlar orqali jurnalistikaning bozor manipulyatsiyasi, korporativ bosimlar va siyosiy ta’sirga qanday munosabat bildirayotgani, hamda axborot tarqatishdagi uslubiy farqlar aniqlanadi [3].

Tahlil natijalariga ko‘ra, global biznes jurnalistikasi tobora ko‘proq siyosiy manfaatlar bilan chirmashib ketayotgan axborot oqimi ichida faoliyat yuritayotgani aniqlanadi. Xususan, xalqaro nashrlar tomonidan yoritilayotgan iqtisodiy axborotlar ko‘pincha davlatlar yoki korporatsiyalarning tashqi siyosiy pozitsiyalariga moslashtirilgan tarzda talqin qilinadi. Masalan, “Bloomberg” va “Financial Times” singari nashrlarda Rossiyaga qarshi iqtisodiy sanksiyalar, AQSh-Xitoy savdo urushi yoki Yevropa Ittifoqining iqtisodiy siyosatiga oid

materiallar ko‘pincha g‘arbiy nuqtayi nazarga mos holatda tahlil qilinadi [4; 205]. Bu esa axborotning neytralligi masalasini ochiq qoldiradi.

Shuningdek, jurnalistlarning axborot manbalariga mustaqil ravishda emas, balki ko‘pincha rasmiy press-relizlar, investor bayonotlari yoki hukumat axborotlariga tayanib ishlayotgani kuzatildi. Bu holat ayniqsa davlatlararo ziddiyatlar, sanksiyalar yoki strategik kelishuvlarga oid voqealarni yoritishda yaqqol namoyon bo‘ladi. “The Economist” nashrida AQSh–Xitoy savdo urushi yoritilganida asosan AQSh rasmiy manbalariga tayanilgani, Xitoy pozitsiyasi esa cheklangan miqdorda berilgani aniqlangan [5]. Bu tendensiya jurnalistikaning turli pozitsiyalarni teng ravishda yoritish qobiliyatiga putur yetkazadi.

Ayrim davlatlarda iqtisodiy axborot oqimi rasmiy nazoratga olingan. Masalan, Xitoy va Rossiyada biznesga oid asosiy statistik ma’lumotlar faqat davlat manbalari orqali uzatiladi va ular OAVda senzura filtri orqali yoritiladi. Bu esa mustaqil jurnalistikaning iqtisodiy jarayonlarga oid chuqur tahlil olib borishiga to‘siq bo‘lmoqda. Xususan, “Xinhua News” va “China Daily” kabi OAVlar faqat ijobiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarni taqdim etib, siyosiy salbiyliklarni chetlab o‘tmoqda [6]. Bu holat jamiyatga uzatilayotgan iqtisodiy axborotlarning to‘liqligiga va haqqoniyligiga putur yetkazadi.

Bundan tashqari, media kompaniyalarining moliyaviy jihatdan texnologik platformalarga (Google, Meta) va yirik reklama beruvchilarga qaramligi ortib boryapti. O‘rganilgan holatlarda aniqlanishicha, ko‘plab nashrlar o‘z kontent strategiyasini reklama algoritmlariga moslashtirishga majbur bo‘lmoqda. “Meta Journalism Project” va “Google News Initiative” dasturlari orqali yuzlab OAVlari grant va platforma asosida moliyalashtirilmoqda. Bu holat ularda axborotni tanlash va yoritish erkinligini cheklash xavfini kuchaytiradi [7].

Umuman olganda, biznes jurnalistikada xolislik, ishonchlilik va mustaqillik doimiy bosim ostida qolmoqda. Tahlil qilingan maqolalarda iqtisodiy voqealarning tahlili ko‘pincha bir tomonlama manbalarga asoslanadi, alternativ nuqtayi nazarlar yetarlicha yoritilmaydi. Bunga sabab – axborot manbalariga cheklangan kirish, siyosiy va moliyaviy bosimlar, shuningdek jurnalistlarning yetarli malakaga ega

bo‘lmasligi bilan bog‘liq. Natijada, iqtisodiy axborotlar ko‘pincha korporativ va siyosiy manfaatlarning vositasiga aylanib qoladi.

Zamonaviy biznes jurnalistikasi o‘zining xolislik va mustaqillik tamoyillarini tobora murakkablashib borayotgan axborot siyosati va iqtisodiy manfaatlar to‘qnashuvi fonida saqlab qolishga intilmoqda. Davlatlar tomonidan yuritilayotgan axborot siyosati ko‘pincha iqtisodiy jarayonlarning yoritilishida selektiv yondashuvni keltirib chiqaradi. Masalan, Xitoy yoki Rossiya singari yopiq tuzumlarda iqtisodiy yutuqlar targ‘ib qilinib, muammoli holatlar ommaviy axborot vositalarida yoritilmaydi. Bunda davlat axborot siyosati jurnalistlar faoliyatini cheklab, ularni rasmiy nuqtayi nazarni targ‘ib qilishga majbur qiladi [1; 205]. Shu bilan birga, liberal jamiyatlarda ham bosimlar boshqa shaklda – korporativ manfaatlar, reklama va platforma algoritmlari orqali namoyon bo‘lyapti.

“Google” va “Meta” kabi yirik texnologik gigantlarning media kompaniyalarga nisbatgan moliyaviy ta’siri shuni ko‘rsatadiki, kontent strategiyasi tobora algoritmlar va platforma qoidalariga bog‘lanib qolmoqda. “Google News Initiative” va “Meta Journalism Project” kabi dasturlar, bir tomondan, jurnalistikani moliyalashtiradi, boshqa tomondan esa, ularni bevosita algoritmik muvofiqlikka majbur etadi [8; 145]. Natijada, tahliliy maqolalar ko‘proq “klikbeyt” sarlavhalar, soddalashtirilgan mazmun va reklama doirasidan chiqmaydigan axborotga aylanish xavfi ostida qoladi. Bu holat axborotning jiddiyligi, aniqligi va chuqurligiga putur yetkazadi.

Axborotning xolisligi va filtrlanish muammosi ham ochiq va yopiq jamiyatlar orasidagi keskin tafovutlarni yuzaga chiqaradi. Ochiq jamiyatlarda mustaqil jurnalistlar tomonidan geosiyosiy voqealar ko‘proq turli nuqtayi nazardan yoritilsa-da, ayni paytda katta korporatsiyalarning bevosita yoki bilvosita bosimi ularni ijtimoiy tarmoqlardagi keskin tanqidlar va iqtisodiy bosimlar bilan yuzlashtiradi. Yopiq jamiyatlarda esa filtrlar orqali nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy axborotlar ham kesiladi. Natijada, jamoatchilik noto‘liq yoki biryoqlama axborot asosida iqtisodiy qarorlar qabul qiladi [9; 4].

Feyk va manipulyativ axborotlarning xavfi biznes jurnalistikada alohida o‘rin tutadi. 2021-yilda “GameStop” aksiyalarining ommaviy ravishda sun‘iy oshirilishi “Reddit”dagi “WallStreetBets” guruhi faoliyati orqali sodir bo‘ldi. Bu voqea investorlarning ijtimoiy psixologiyasi, axborot oqimidagi ishonch va dezinformatsiya kuchining qanchalik kuchli ekanini ko‘rsatdi. “Robinhood” kabi broker kompaniyalar bu holatga javoban savdoni to‘xtatib qo‘yganida, axborot muhitiga bo‘lgan ishonch sezilarli darajada pasaydi [10]. Xuddi shunday tarzda, “Tesla” aksiyalariga oid turli manipulyativ xabarlar esa investor qarorlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ayrim manbalar “Wall Street”dagi manfaatdor guruhlarining Teslaga oid aksiyalarni atayin pasaytirishga uringanini ta’kidlaydi [11].

Mazkur hodisalar iqtisodiy propagandaning konkret shakllarini ko‘rsatadi. Bu – real bo‘lmagan ijobiy prognozlar, raqobatchilarni salbiy axborotlar bilan obro‘sizlantirish va statistik ma’lumotlarni buzib ko‘rsatish hollari. Bunday holatlarda jurnalistlar nafaqat axborot yetkazuvchi, balki uni aniqlashtiruvchi, manbalarni tahlil qiluvchi va auditoriyani noto‘g‘ri qarorlardan asrovchi sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Shu nuqtada jurnalistlarning malakasi, analitik fikrlashi va kasbiy etikasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ular iqtisodiy statistikani o‘qiy olish, sarmoya bozori dinamikasini tushunish, geosiyosiy fonni kontekstual izohlash qobiliyatiga ega bo‘lishi shart. Ayniqsa, mustaqillikni saqlash va manfaatlar to‘qnashuviga berilmaslik uchun jurnalistlar o‘z kasbiy pozitsiyasini doimiy mustahkamlab borishi kerak. Bu esa nafaqat individual kompetensiyaga, balki mustaqil va erkin axborot muhitining mavjudligiga ham bog‘liq.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, biznes jurnalistikasi zamonaviy global iqtisodiy va siyosiy jarayonlar chorrahasida faoliyat yurituvchi muhim axborot manbaiga aylangan. U faqat iqtisodiy jarayonlarni emas, balki ularning siyosiy kontekstdagi talqinini ham auditoriyaga yetkazadi. Biroq bu jarayon davomida jurnalistlar axborotning xolisligi, aniqligi va mustaqilligini saqlashda qator to‘siq va tahdidlar bilan yuzlashmoqda.

Davlatlar tomonidan yuritilayotgan axborot siyosati, yirik korporatsiyalarning manfaatlari, texnologik platformalarning algoritmik bosimi biznes jurnalistikasining neytrallik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatyapti. Ayniqsa, yopiq jamiyatlarda rasmiy ma'lumotlarning ustuvorligi, ochiq jamiyatlarda esa iqtisodiy bosimlar axborot filtrlari va manipulyatsiyalarni kuchaytiradi. Tadqiqotda tahlil qilingan misollar – “Tesla”, “GameStop”, AQSh-Xitoy savdo urushi, Rossiyaga sanksiyalar – biznes jurnalistikada axborotning ishonchliligi va xolisligiga bo'lgan ehtiyojning dolzarbligini ko'rsatdi. Jurnalistlarning siyosiy yoki korporativ ta'sirlardan xoli tahlil yurita olishi, nafaqat jamiyatda sog'lom iqtisodiy qarorlarning shakllanishiga, balki erkin axborot muhitining mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi.

Shu bois, biznes jurnalistikasida mustaqillikni ta'minlash, tahlil kompetensiyalarini kuchaytirish, ko'p manbali axborotga tayanish, siyosiy ta'sirni tanib olish va undan xoli fikr shakllantirishga muhim professional mezonlar sifatida qaralishi lozim. Kelajakda bu yo'nalishda jurnalistlar uchun maxsus axloq kodekslari, malaka oshirish dasturlari va erkin axborot siyosatini qo'llab-quvvatlovchi xalqaro institutlar ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Hamilton, J. Business Journalism: A Critical Political Economy Approach. London: Routledge. 2016. – 12 b.
2. Schifferes, S., Coulter, S. “Media and Financial Crises: Comparative and Historical Perspectives” // Journalism, №13(2). – 2012. B. 197–217.
3. Harvard Business School. Corporate Scandals and Financial Propaganda. <https://hbr.org/>
4. Schifferes, S., Coulter, S. Media and Financial Crises: Comparative and Historical Perspectives // Journalism, №13(2). 2012. – B. 197–217.
5. China has got lucky with Trump. Can the rest of the world? <https://www.economist.com/finance-and-economics/2025/05/15/china-has-got-lucky-with-trump-can-the-rest-of-the-world>

6. China's economic performance in April of 2025.  
<https://english.news.cn/20250519/1d505dc4d1b944e7b30d50b52fa39ce5/c.html>
7. Where did Facebook's funding for journalism really go?  
[https://www.cjr.org/tow\\_center/how-meta-funded-journalism.php](https://www.cjr.org/tow_center/how-meta-funded-journalism.php)
8. McChesney, R. W. Digital Disconnect: How Capitalism is Turning the Internet Against Democracy. – New York: The New Press. 2013. – 352 b.
9. Guo D. Revealing China's soft power narratives in state-owned media: A content analysis // Chinese Journal of International Review. – 2023. – Vol. 5, No. 2. – B. 1-18.
10. Cato Institute. The GameStop Episode: What Happened and What Does It Mean? <https://www.cato.org/cato-journal/fall-2021/gamestop-episode-what-happened-what-does-it-mean>
11. Finbold. Tesla stock is being manipulated, claims Wall Street analyst.  
<https://finbold.com/tesla-stock-is-being-manipulated-claims-wall-street-analyst>